

**Lutfullo Mahmud  
Nodirbek Bahromov**

**NAMANGANLIK  
NAVOSOZLAR**

**Birinchi kitob**



**Saidxo`ja  
Xoldorxo`jayev**

NAMANGAN VILOYATI "TAMADDUN" IJTIMOY-OMMABOP  
AXBOROT GAZETASI TAHRIRIYATI

"TAMADDUN"-21 ILMIY-IJODIY BIRLASHMASI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEKISTON KOMPOZITORLARI VA BASTAKORLARI  
UYUSHMASI NAMANGAN VILOYATI BO'LIMI

Lutfullo Mahmud  
Nodirbek Bahromov

# NAMANGANLIK NAVOSOZLAR

*Birinchi kitob*

*Saidxo'ja Xoldorxo'jayev*

«Arjumand media» nashriyoti  
Namangan  
2020

UO'K: 821.512.133-9

KBK: 84(O'zb)7

M-15

Lutfullo Mahmud. Nodirbek Bahromov. Namanganlik navosozlar.  
*Saidxo'ja Xoldorxo'jayev. «Arjumand media» nashriyoti, Namangan,*  
2020. 96 b.

KBK: 84(O'zb)7

***Musiqalarni Namangan ixtisoslashtirilgan san'at maktabi  
o'qituvchisi Nodirbek Bahromov notalashtirgan***

***Taqrizchilar: Nortoji Yusupova,***

*O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari  
uyushmasi Namangan viloyati bo'limi raisi*

***Muhammadali Mirabdullayev,***

*Namdu Musiqa va madaniyat fakulteti dotsenti (v.b.)*

Saidxo'ja Xoldorxo'jayev degan inson va san'atkor haqida gapirmoq mo'jiza darajasidagi, nodir noyob iste'dod sohibi, shinavandalar va mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan bastakor, xonanda va sozanda borasida so'z aytmoqdir. Bu gapda hech bir mubolag'a yo'q, bu kishining hayot yo'li va ijodiy faoliyati bilan tanish bo'lgan har qanday odam hayratlar tuymog'i, tahsin va tasannolar aytmog'i aniq.

ISBN – 978-9943-6268-0-5

© Lutfullo Mahmud.

Nodirbek Bahromov

© «Arjumand media» nashriyoti, 2020.



## BASTAKOR

*(So'z boshi o'rnida)*

Saidxo'ja Xoldorxo'jayev Farg'ona vodiysining taniqli bastakorlaridan biridir. U o'zbek mumtoz musiqasining rivojlanishiga samarali hissa qo'shib, ijodi davomida 400 ga yaqin qo'shiq va ashulalar yaratgan bastakor, shu bilan birga mohir sozanda va xushovoz xonandadir.

Saidxo'ja Xoldorxo'jayev 1934-yilning 1-mart kuni Namangan viloyatining Namangan tumani hududidagi "Xo'jaqishloq"da dehqon oilasida dunyoga keladi. Otasi Ulug'ov Xoldorxo'ja (1896-1982 yillar) san'atga katta mehr qo'ygan, san'atsevar inson bo'lgan. U san'atkor bo'lmas-da xalq termalari, aytishuv va laparlarni qishloqda bo'lib o'tadigan to'y-tantanalarda, turli marosimlarda, "Navro'z" va "Hosil bayramlari"da ijro etib, xalq dilidan munosib o'rin olgan. Shuningdek, Navoiy, Huvaydo, Mashrab, Mirzo Bedil kabi shoirlarning g'azallarini kuyga solib, ijro etgan.

Bo'lg'usi bastakorning onasi Nusratxon aya (1944-1990-yillar) uy yumushlari va farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullangan, oilada besh farzand, ya'ni ikki qiz va uch o'g'ilni tarbiyalab, voyaga yetkazgan edilar. Ulardan Ahror qori 1932-yilda tug'ilgan, ko'zi ojiz bo'lgan. Saidxo'ja otasi singari san'atga qizi-

quvchanligi bilan ajralib turardi. U Namangan tumanidagi 13-o'rta maktabda boshlang'ich ta'limni oladi. 4-sinfdan boshlab maktabning musiqa to'garagiga akasi Ahror qori bilan qatnashadilar. To'garak rahbari A'zamxon akadan tanbur, dutor chalishni va akasi Ahror qori bilan jo'r ovoz bo'lib kuylashni o'rgana boshlaydi. Ularning san'at borasidagi ilk ustozlari A'zamxon Saidxonovdir.

Saidxo'ja Xoldorxo'jayev yetti yillik maktabni tamomlagach, 1957-yili Namangan tibbiyot bilim yurtiga o'qishga kiradi. Bilim yurtida o'qish bilan birgalikda san'atga bo'lgan havasini ham yoddan chiqarmaydi. Bu boradagi bilimlarni puxta egallash maqsadida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Usta Ro'zimatxon Isaboyevdan saboq oladi, qisqa vaqt ichida ustadan tanbur chalishning muayyan sir asrorlarini, qochirim va nolalarini qo'llash usullarini o'rganadi.

1959-yili Saidxo'ja Xoldorxo'jayev bilim yurtini tamomlab, Namangan viloyati Mingbuloq tumanidagi "Damko'l" tibbiyot punktida feldsherlik faoliyatini boshlaydi. Ikki yildan so'ng u o'zi tug'ilib o'sgan Namangan tumanidagi G'alcha qishloq tez yordam punktida mehnat faoliyatini davom ettiradi. Ayni chog'da san'atdan ko'ngil uzmay mahoratini oshirishda davom etadi. Ishdan bo'sh paytlarida, shu davrda samarali faoliyat olib borgan "Dilshod" va

“Olvalizor gullari” nomli ashula va raqs dastalari bilan ijodiy hamkorlik qildi.

Yosh san’atkorning mahorati asta-sekin kamol topa bordi. U ko’plab ko’rik-tanlovlarda ishtirok etib, g’olib bo’ladi. Ko’p o’tmay u “Olvalizor gullari” ashula va raqs ansambliga rahbar etib tayinlanadi. Ayniqsa, xonanda sifatida akasi Ahror qori bilan hamnafas bo’lib, katta dovrug’ topadi. Ijrochilik mahorati bilan el nazariga tushib, tomoshabinlarning tahsiniga sazovor bo’ladi. U mumtoz shoirlar Navoiy, Mashrab, Maxtumquli, Charxiy, Chustiy kabi qator adabiyotimiz darg’alarining ijodiga doimo murojaat qiladi. Ijrochilik sirlarini yanada puxta egallash maqsadida Jo’raxon Sulstonov, Ma’murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov kabi atoqli san’atkorlar bilan ijodiy muloqotda bo’ladi.

Saidxo’ja Xoldorxo’jayev musiqiy merosimiz namunalarini maromiga yetkazib ijro qilish bilan birgalikda, 1952-yildan e’tiboran o’zi ham ashula va qo’shiqlar yaratib, shinavandalarga havola eta boshiadi. “Noz aylasalar”, “O’ldirur”, “Koshkiydi”, “Bo’lmas”, “Junun vodiysig’a”, “Kel ey, dilbar”, “Sendadur”, “Kelmadi”, “Gulzorimdan” kabi qator asbulalar shular jumlasidandir. Bular bastakor ijodining ilk namunalari hisoblanadi. U Jamol Hasanov, Yo’ldoshali Tillaboyev, Samijon Boltaboyev, Kamoliddin Rahimov, O’rinboy Nuraliyev kabi zamona-

sining taniqli san'atkorlari bilan hamkorlikda ijod qildi.

Saidxo'ja Xoldorxo'jayev tibbiyot sohasida ham samarali mehnat qilib, hurmat-e'tiborga sazovor bo'ladi. Ammo uning bastakorlikda yaratgan asarlari ma'naviy musiqa merosimiz gultojiga aylanib, xalqimiz orasida ommalashib ketdi. Aytish mumkinki, bastakor yaratgan o'nlab ashulalarning o'zbek musiqa merosida munosib o'rni bordir.

Saidxo'ja aka umr yo'ldoshi Lutfiniso aya bilan yetti o'g'il va bir qizni tarbiyalab, Vatanga munosib xizmat qiladigan farzandlar qilib voyaga yetkazdilar. Farzandlarining to'rt nafari Olimjon, Orifjon, Hasan va Husan Xoldorxo'jayevlar tuman madaniyat bo'limida faoliyat yuritib kelmoqdalar.

Ustoz tibbiyot sohasidagi fidokorona mehnati uchun 1972-yili "Sog'liqni saqlash a'lochisi" nishoni bilan mukofotlandi.

Bastakorlik va xonandalik borasidagi iste'dodi mustaqillik yillarida yuksak baholandi. Saidxo'ja Xoldorxo'jayev Istiqlolning bir yilligi munosabati bilan 1992-yili "Mustaqillik" esdalik nishoni hamda "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvoni bilan taqdirlangan.

*Nasiba Turg'unova*

Ustoz munaqqid To'xtasin G'ofurbekov "Bastakor" atamasiga ta'rif berar ekanlar, shunday deb yozadilar: "Bastakor (forscha bog'lov, bog'lash) an'anaviy, mumtoz musiqa asarlarining muallifi. Sharq olamida bu ijod ahlini yana musannif, mullahbin, navosoz, ohangsoz deb ham ataydilar".

Musiqadek go'zal san'at o'zining paydo bo'lishi va kamol topishi uchun, avvalo, bastakorlar oldida qarzdor.

Farg'ona vodiysining Soymali tosh manzilgohidan topilgan va eramizdan avvalgi 2-1-ming yillarga mansub bo'lgan tasvirlarda o'sha zamon kishilarining raqs tushayotganlari aks ettirilgan. Ulardan hiri doiraga yoki do'l nog'oraga o'xshagan cholg'u bilan raqqoslarga usul berib turibdi. U chalayotgan, balki bir necha usuldan iborat mana shu jo'n, sodda tizimni ham bastakor yaratgan, balki bu silsila uning o'z ijodidir. Musiqa ijodkorlarining qadim bobokaloni bo'lmish dastlabki bastakorlar shunday paydo bo'lgan deyish mumkin.

Ajdodlarimiz zamonlar davomida turli hayotiy marosimlar, tadbirlarga mo'ljallab, hamda xatar, tantana, shodlik, qayg'u va boshqa kayfiyatlarni izhor eta oladigan ana shunday tovushlar qatorini, tizimini tuzishda mahorat kasb etib borganlar.

Namangan viloyati musiqa san'ati mutaxassislar tomonidan nisbatan kam o'rganilgan. Holbuki,



“Xushxon Namangan” ta’rifi bilan mashhur bu viloyatning sozanda, xonanda, bastakorlarning ijodi, avloddan avlodga o’tib kelayotgan musiqiy an’analar, boy meros har qancha tadqiq va targ’ib qilinsa arziydigan miqyosdadir.

O‘zbek musiqa san’ati xazinasini tashkil etgan rang-barang kuylar, qo’shiqlar, yallalar, laparlar, yirik hajmdagi, murakkab mujassamot va usullar tizimiga ega bo‘lgan maqomlardan tortib bolalar orasidagi o‘yinlarda aytish urf bo‘lgan sodda qo’shiqlar ham qachondir, qaysidir bastakor tomonidan ijod etilgan. Baxshi shoirlar ijro etadigan yirik dostonlarning orasida keladigan kuylar, qo’shiqlar ham shu dostonni to‘qigan, aytgan ijodkor tomonidan yaratilgan, keyin esa uning izdoshlari tomonidan sayqal berilgan.

Pop tumani “Munchoqtepa” yodgorligidan topilgan qimmatbaho munchoqlar, bilak uzugi, sirg’a, uzuk, surmadon, taroqlar qatori qo’shnay musiqa asbobi ham borligi viloyat hududida milodning 4-5 asrlariga kelib musiqa madaniyatining muayyan taraqqiyotga erishgani isboti bo‘ldi.

O‘tkazilgan va olib borilayotgan arxeologik izlamishlar viloyatning yana bir ko‘hna shahri, o‘z vaqtida Farg‘ona vodiysining bosh shahri poytaxti maqomida bo‘lgan Axsikent tarixining turli davrlariga mansub juda boy yodgorliklarini topish imkonini berdi. Bular axsikentliklar inson faoliyatini-

ning barcha jabhalarida, jumladan, hunarmandchilik, qurilish, ilmu fan, adabiyot, san'at va boshqa sohalarda yuksak takomilga ega bo'lganligini namoyish qildi.

"Boburnoma"ni varaqlar ekanmiz, Umarshayx Mirzo davrida Axsikentda nafis majlislar tez-tez tashkil etib turilgani, ularni Yusuf Hoja, Hoja Husaynbek, Qosimbek Qavchin, Yusuf Badiiy kabi balog'atnizom hunarpeşalar obod etganlarining guvohi bo'lamiz.

Madaniyatimizning yana bir buyuk namoyandasi Boborabim Mashrabning ijodiy faoliyati zamona-sidagi san'at bilan mushtarak, bevosita bog'liqdir.

Ko'- bako', sahra- basahro safarlarida ustozga Pirmat Setoriy, Husayn Tanburiy, orif qalandari Changiy, Asror Setoriy, Ilhom Changiy kabi sozandalar hamroh bo'lganlar. Bular borgan joylarda she'r o'qilgani, qo'shiqlar aytilganini tasavvur etish qiyin emas.

Maqom olib maqom ichra

maqom dilga jo qilsam,

Muhabbat soziga sozlab,

man uni oldida cholsam,

Maqomlarning atosini

"Husayniy"u Ajam derlar,

Bulardan ham yuqori

pardada "Chorgoh" cholsam...

kabi satrlar shoirning o'zi ham nafaqat musiqa ilmidan, maqomlardan ogoh ekani, balki ularni ijro eta olganini aytib turibdi. Hamisha savqi tabiiylik holatida, ruhu dili cholg'usini eng baland pardalarga sozlab yashagan oshiqlar sultonining ko'pgina she'rlari o'z ohangi, kuyi bilan tug'ilgan, shoir va navozanda tomonidan hozir tug'ilgan qo'shiq sifatida o'qilgan, aytilgan bo'lsa ajab emas.

Umuman, namanganlik bastakorlarning o'zbek musiqa san'atida, qo'shiqchiligi ravnag'ida tahsinga loyiq xizmatlari bor.

Usta Ro'zimatxon ustozimiz Namanganning 20-asr boshlarida yashagan Ro'zi Oxun, Sobir Oxun kabi sozandalarning shogirdi, ular san'atining davomchisi edilar. Bu ulug' insonning bir necha kuylar yaratganlari haqida salaflardan eshitganmiz. Bundan tashqari ulug' ustoz xalqimizning boy musiqa merosi namunalarini qayta ishlab, Namangan va Andijon teatrlarining o'nlab spektaklarini musiqalashtirganlar, zarur joylarini yangi kuylar bilan bezaganlar.

Shu gapni Abdulla taroqchi Fayzullayev, Muhammadjon Do'stmuhammedov, Jamolqori G'iyosov kabi qator xonandalar haqida ham aytish mumkin, ya'ni bular mohir sozanda va yaxshi qo'shiqlar ijodkor sifatida hurmat qozongan edilar. Musiqamiz tarixidan ozdir-ko'pdir xabardor bo'lgan san'at muxlisi Karimjon Mansurovning betakror xonanda Mukarrama Azizova tomonidan ijro etilgan "Alla",

“Dutorim”, “Qo‘zim” va boshqa dilbar navolarni yaxshi eslaydi. “Alla” qo‘shig‘i keyinchalik Habiba Oxunova bisotining gavhariga aylandi. Chustlik xonanda va sozanda Halimjon Jo‘rayev ijodiga mansub “O‘rtar”, Abdurashid Vohidov musanniflik qilgan “Qaramaysiz”, “O‘rgulay ranjitsa ham, kuydirsa ham”, “Emasmu”, “Bormayman dedi” kabi taronalar qo‘shiqchilimiz xazinasidan mustahkam o‘rin olgan.

Bu o‘rinda ijrochilik faoliyatini qo‘shiq ijodkorligi bilan birga olib borgan Kamoliddin Rahimov, O‘rinboy Nuraliyev, Turdali Saydullayev, Mahmudjon Isomiddinov, Nurilloh qori, Jo‘raxon Rahimov, Samijon Boltaboyev, Ibrohimjon Qodirov, Rustam qori No‘monov, Zokirjon Rahimov, Hadicha Alimardonova, bulardan keyin katta san‘atga kirib kelgan Muhriddin Xoliqov, Alisher Fayz kabi elga mashhur xonandalar va Erkin Xolmirzayev, Mahmudjon Inomov, Mahmudjon Dadaboyev, Akbarali Asqarov kabi yorqin iste‘dodlarni eslash joizdir.

Ustoz bastakorlar Dadaali Soatqulov, Manas Leviyevlarning ham, aynan, namanganlik ekanliklari bizga faxru iftixor bag‘ishlaydi.

Yaratgan ijodkori noma‘lum bo‘lgani uchun “xalq kuyi” deb qo‘ya qolinadigan taronalar ko‘p. Bu ta‘rifda ulkan ma‘no bor. Xalqning ming yillik san‘ati har qanday nag‘mani ham o‘z xazinasiga qo‘shib olavermaydi. Endi, hamonki, qaysidir ijodkor yaratgan

qo'shiq bu xazinaga qo'shib, muxlislarning e'zosi va yodidan, san'atkorlarning e'tiboridan tushmay kelayotgan ekan, demak, u "xalq kuyi" deb atalishga arziydigan asardir va o'sha kamtarin ijodkor xalqimiz ko'ngil mulkini bitta munosib durdona bilan boyroq qila olgan. Parvardigor ularning barini o'z rahmati bilan suyuntirgan bo'lsin.

Namanganning o'ziga xos bo'lgan qo'shiqlari bor.

Kamina kotibingiz bir mahallar kattakon magnitafonni ko'tarib, namanganlik yallachilarning ustozlari Ravzaxon ayaning uyiga borgan va undan 15-20 chog'liq qo'shiq yozib olgan edim. Ularning orasida o'shangacha eshitmaganim va bugungi kunda ham aytilmaygan juda chiroyli qo'shiqlar bor edi. O'shanda, iste'dodi kuchli yallachilar o'zlari ham yangi qo'shiqlar ijod etar ekanlar degan aniq to'xtamga kelganman.

Saidxo'ja Xoldorxo'jayev degan inson va san'atkor haqida gapirmoq esa mo'jiza darajasidagi, nodir noyob iste'dod sohibi, shinavandalar va mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan bastakor, xonanda va sozanda borasida so'z aytmoqdir. Bu gapda hech bir mubolag'a yo'q, bu kishining hayot yo'li va ijodiy faoliyati bilan tanish bo'lgan har qanday odam hayratlar tuymog'i, tahsin va tasan-nolar aytmog'i aniq.

Benisbat xonanda Kamoliddin Rahimov aytadigan bir ashula bor: "Kutarman zor" deb ataladi, shoir Hayitboy Azimiyning she'riga bastalangan,

Qani bir bor nasib etsa

menga dildorliging, dildor,

deb boshlanadi. Har safar o'zbek qo'shiqchilik san'atining eng go'zal namunalaridan biri bo'lmish ushbu ashulani eshitganimda bir xayolga boraman. Uyingizda rubob bo'lsa, qo'lga olib bir pardani bosing edi... Eshityapsizmi, rubob sizning harakatingizga javoban sado bermoqda: "lya" yoki "do"demoqda. Kuyni, navoni muhtasham imorat deb faraz qilsak, mazkur sadolar uning dastlabki ikkita g'ishtidir.

Bastakor kuyni, qo'shiqni ana shunday sadolaridan, ohanglardan bino qiladi, bu binoni tiklash uchun u haligi "lya" yoki "do"larning necha yuzini, mingini joy-joyiga qo'yib chiqishi kerak. Agar bulardan birortasi o'z o'rnida turmasa, qurilayotgan binodagi mutanosiblik, uyg'unlik, ko'rkamlik buziladi. Tovushlar, sadolar ko'ngil chamanlarida, xayolot samolarida kezinib, parvoz qilib yurgan parilardir, ular navosozning iste'dodi, mahorati, zavqi-ilhomi sehriga bo'ysunib, huzuriga yig'ilib keladilar va go'zal, betakror davralar tuzadilar.

Mana, qanday nozik, mashaqqatli mehnat bu, mana, qanday nodir, noyob iste'dod va inja mahorat sohibi bo'lmog'i kerak bastakor.

Boz ustiga u hikoyamiz qahramoni Saidxo'ja Xoldorxo'jayev singari konservatoriyaning kompozitorlik bo'limi tugul, loaqal musiqa bilim yurtini ham bitirmagan bo'lsa...

Yana shunisi ham hayratbaxshki, Saidxo'ja aka dastlabki ashulalarni yaratganda hali maktab o'quvchisi edi. Lekin, hazrat Navoiyning "Ermish," "Junun vodiysiga" deb ataluvchi g'azallariga bastalangan, mumtoz musiqamiz an'analarida ijod etilgan o'sha ashulalar har jihatdan mukammal, musiqaviy uyg'unlik risoladagiday, so'z bilan kuy bir-biri bilan yig'lab ko'rishgandek ediki, bu bastakor yigitchaning favqulodda iste'dod sohibi ekanimi isbot etardi. Ashulalar juda tez ommalashib ketdilar, og'izdan-og'izga o'tib, Toshkentda Orif Alimaxsumov, Qo'qonda Rasul qori Mamadaliyevlar tomonidan aytili. Hali hanuz bu ashulalar halqimizning yuragiga manzur navolardan bo'lib qolmoqda.

Saidxo'ja Xoldorxo'jayevning bolaliklari urush yillariga to'g'ri kelgan. Hayot og'ir, zamonaning ko'ziga bir burda non eng chiroyli qo'shiqday ko'rinib turgan paytlar.

Yo'q, hato ketdik. Xato ketdik, chunki, Said akaning guvohlik berishicha, xalqimiz o'sha mahallar ham ijod qilishdan tingan emas, "Qorning ishi

qorchilik, gulning ishi gulchilik", she'r yozilavergan, qo'shiq bastalangan, termalar to'qilgan.

Bu olamni cheksiz-chegarasiz musiqa deb qabul qilgan, idrok etganini qo'shiq bilan izhor etgan temirqanot bulbulcha Saidxo'ja ham akasi Ahror qori bilan, maktabdami, qishloqdami, qanday tadbir, yig'ilish, anjuman bo'lsa ashula aytib yurib ulg'aydi.

Xalqimizning o'sha urush davridagi badiiy ijodi, ayniqsa, o'sha paytlar paydo bo'lgan qo'shiqlar, termalar, kuylar ham kam o'rganilgan, yoki e'tibordan chetda qolib kelayotgan sohadir. Har safar urush bilan bog'liq sanalar kelganda Moskov oynai jahoni orqali taralayotgan, urush yillari yaratilgan o'ris qo'shiqlarini eshitib, bir xayolga boraman, nega bizda o'sha zamonga mansub durdonalarni topib, o'rganilmaydi, yana xalqning o'ziga qaytarib berilmaydi... Bu kuy-qo'shiqlar xalqimizning o'sha mash'um kunlaridagi ahvoli ruhiyasini, orzu-umidlarini, kechinmalarini har narsadan amiqroq, ravshanroq ifoda etib bermog'i mumkin-ku....

Urush tugadi. Saidxo'ja bu mahalga kelib A'zamxon aka Saidxonov ismli nomi chiqqan xonandaning etagini pishiq tutgan, undan tanbur chertishni, mashshoqlik, xofizlik san'atlarining pastu-balandini o'rganib yurardi. "Qotil", "O'g'ling kelur", "Qachongacha?" "Dugoh " kabi o'nlab ashulalarni o'rgatgan ham, shogirdini o'zi bilan katta-katta davralarga olib



yurib, safga qo'shilishga bois bo'lgan ham shu A'zamxon akadir.

1952-yilga kelib esa o'n yetti yoshli Saidxo'ja o'zining dastlabki ikki ashulasiga kuy bastaladi – bular tilga olgamimiz “Junun vodiysi” va “Ermish” ashulalari edi.

O'shandan beri vaqt daryosi ustiga necha bor gul to'kildi. Bu davr mobaynida Saidxo'ja aka Namangan tumanidagi kasalxonalarda o'zining ta'biricha «kichik tibbiy xodim» sifatida ishlab yurdi. Biroq, yuragining mahbubasi san'at edi, undan aslo ko'ngil uzgani yo'q. Qayda ishlamasin, to'rtta ishqivozning boshini qovushtirib, to'garak tashkil etdi, o'rgandi, izlandi, qo'shiq aytdi, qo'shiq yaratdi, nomi bastakor bo'lib tanildi.

1973-yildan boshlab esa Namangan tumani madaniyat uyida tashkil etilgan sanoii nafisa jamoasida ishlay boshladi. Ko'p o'tmay “Olvalizor gullari” deb atalgan bu jamoaga “xalq ansambli” unvoni berildi, shundan keyin Said akamiz uning ham badiiy rahbari, ham mehtari bo'lib ishlab, umr o'tkazdilar.

Bu orada Saidxo'ja akaning ijodi uch yuz ellik - to'rt yuz atrofida shirin-shakar meva berdi. Uning qo'shiqlari allaqachon Namanganning olmalariday shuhrat topib ketishgan. Ustozning Alisher Navoiy, Mashrab, Huvaydo, Chustiy, Erkin Vohid, Uyg'un, Habib Sa'dulla, Hayitboy Azimiy, Po'lat Mo'min, Rashid Halil va boshqa shoirlarning she'rlariga

bastalangan "Sevganing rostmu?", "Bo'lsam kerak", "Mahvashim", "Iltijo", "Tortar", "O'ldirur", "Topolmasman", "Kelsangiz" kabi dilnavoz qo'shiqlari Kamoliddin Rahimov, O'rinboy Nuraliyev, Xayrulla Lutfullayev, Mahmudjon Tojiboyev, Vahobjon Abdulloyev, Alijon Erkayev, Abdurashid Vohidov, Samijon Boltaboyev, Yo'ldoshali Tillaboyev, Ahmadjon Dadayev, Ma'rufxon Oripov, Bahodir Bakirov, Abdugahhor Jalilov va o'nlab havaskor hofizlar tomonidan kuylangan, bugungi kunda ham kuylanib kelmoqda. Ko'plab qo'shiqlar Respublika radiosi tarafidan yozib olingan, yigirmadan ortiq plastinkaga bosilgan.

Bir mahallar O'zbekistonda "Men sevaman, sen sevasanmu?" degan qo'shiq eng mashhur edi, uni ijro etmagan xonanda qolmagan hisob, bir davrada besh-o'n marta aytilmasa shinavandalarning ko'ngli qonmasdi.

Saidxo'ja aka - davralarning joni, dilkash, samimiy, dilidagi tilida inson. Viloyat miqyosidagi, respublika darajasidagi hamma katta-kichik festival-larning, ko'riklarning doimiy ishtirokchisi, aksariyatining g'olibi.

Bu odam hali dala, hali bog'da, hali cho'l-u hali tog'da o'tkaziladigan behisob konsertlarda qo'shiq aytib, kuy chalib charchamaydigan zahmatkashdir, fidoiydir.

Bu odam, bitta qo'shiq o'rgating, deb eshigini taqillatib kelgan ashulachining oldiga dasturxon



yozib, vaqtini ayamay, hofiz to qo'shiqni to'la o'zlashtirguncha birga aytishib, to'g'ri o'rgana olgan ashulachidan minnatdor bo'lib kuzatgan-u, ammo o'zi hali birorta xonadondan beshta so'm "norasmiy gonorar" olgan emas.

Suhbatimiz "Kutarman zor" qo'shig'i haqidagi gapdan boshlangan edi. Shu qo'shiq bilan bog'liq bir voqea bor.

1982-yili Saidxo'ja aka yangamiz bilan Katta-qo'rg'onga, xarbiydagi o'g'illarini ko'rgani boradilar. Avtobus tong otarda yetib borar ekan, eru xotin armiyani bunaqa erta bezovta qilmaylik, degan xayolda birorta choyxonada choylashib vaqt o'tkazmoqchi bo'lishadi. Shahar bog'iga kirib, choyxonalardan biriga yaqinlashar ekan, ustaning qulog'iga tanish ohang uriladi. Bu - o'sha "Kutarman zor" qo'shig'i edi.

Vaqt erta bo'lishiga qaramay, choyxonada odam gavjum edi. Said akalar yetib borishguncha qo'shiq nihoyasiga yetadiyu, choyxonachi plastinkani qayta boshdan qo'yadi. Bular o'tirishib, o'rnashib choy-non keltirishgunga qadar qo'shiq tag'im boshdan boshlanadi. Shundayoq Said akaning ko'ngli to'lqinlana boshlaydi. U atrofga razm solib, bu yerda o'tirganlarning hammasini shu xush navo ta'sirida ko'radi.

Hatto, plastinkadagi boshqa bir qo'shiq boshlanganida shinavandalardan biri:

- Hov aka! Avvalgisini qo'yavering! O'sha ma'qul bizga! - deb iltimos qiladi.

Saidxo'ja akaning ko'zlariga yosh keladi:

- O, onasi, - deydi u holatni tushunib turgan xotiniga. - Qara, bu yerdayam bitta farzandimiz xizmat qilib yuribdi ekan. Obro'si, hurmatiyam otasiga rahmat olib bergudek...

Saidxo'ja Xoldorxo'jayev o'zi bilan ulkan bir olamni, bebaho xazinani olib yuribdi. Avvalo, Parvardigordan u kishiga uzoq umr, salomatlik, ijodlariga baraka tilaymiz. Lekin, madaniyatimiz mutasaddilaridan iltimosimiz buki, Said akaning hofizlarga o'rgatib ulgurmagan, na notaga tushirib, na ohanrabo tasmasiga bosib yozib qo'yilmagan qo'shiqlari juda ko'p. Biz qo'lingizdagi kitobga ulardan bir qisminigina jamlay oldik, xolos. Imkonimiz ko'targancha. Bu xazina xalqning mulkidir, uni olib qolishning harakatini bugun, hech kechiktirmay boshlamoq darkor.

# Men sevaman, sen sevasanmi?

M.M.  $\text{♩} = c. 100$



Men se-va-man



Sen se-va-san - mu


me-ni yo'q lab bog' ke-za-



mu

So'z-la rim - dan

yo be-za-san - mu



yu-ra gim - ni

xech se-za-sam - mu




Men se-va-man






sen se-va san - mu.

se-va-san - mu







*Po'lat Mo'min she'ri*

Men sevaman, sen sevasanmu,  
Meni yo'qlab bog' kezasanmu.  
So'zlarimdan yo bezasanmu,  
Yuragimni hech sezasanmu,  
Men sevaman, sen sevasanmu?

Olib ketar har yon xayolim,  
Qanday tushdi senga savolim.  
Gar sevmasang ne kechar holim,  
Yuragimni hech sezasanmu,  
Men sevaman, sen sevasanmu?

Har kim uzar yoqtirgan guldan,  
Suv ichadi ko'ngil ko'ngildan.  
Yurgin vafo ko'rsatgan yo'ldan,  
Yuragimni hech sezasanmu,  
Men sevaman, sen sevasanmu?


Jonon, faqat senga zorim bor,  
Zorim boru qo'lda torim bor,  
Vafo degan dil qarorim bor,  
Yuragimni hech sezasanmu,  
Men sevaman, sen sevasanmu?

Ko'ngling bo'lsa tutmagin pinhon,  
Mayli, etgil ming bor imtihon,  
O'ylab ko'rgil, o'ylab ko'r, jonon,  
Yuragimni hech sezasanmu,  
Men sevaman, sen sevasanmu?



# Bo'lmas

M.M. ♩ = 100



7

12

17

22

28

33

38

44

Har no-mard-ga ayt-ma  
G'usa-sa bi-fan do-na

dar-du si-ring ni,  
do-na ko'-zing ni,  
dan, Has-rat o'-ti jis-min ga  
Ach-chiq yosh-la ring-ni voq-qan-cha bo'l-mas  
to'k-kan-cha-bo'l-mas

Qa-no-at-da iz-zat da tut o'-zing -


ni ta-ma qi-lib sur-g'ay - - - tir-ma yu-zing - ni Har no-mard-ga

ra-vo ko'r-ma so'-zing - ni So'-zing-ni bi-no - sin

yiq-qan-cha-bo'l-mas Mag'-rur bo'-lib kez-ma

um-ring gu-li ga duch ke-lur-san bir kun ha-zon ye-li ga

yuz yil ya-shab tush-sang a-jal qo'-li ga cha ping-dan o'n -



*Mahtumquli she'ri*

Har nomardga aytma dardu siringni,  
Hasrat o'ti jisming yoqqancha bo'lmas.  
G'ussa bilan dona-dona ko'zingdan,  
Achchiq yoshlaringni to'kkancha bo'lmas .

Qanoatda, izzatda tut o'zingni,  
Ta'ma qilib sarg'aytirma yuzingni.  
Har nomardga ravo ko'rma so'zingni,  
So'zingning binosin yiqqancha bo'lmas.

Mag'rur bo'lib, kezma umr guliga,  
Duch kelursan bir kun xazon yeliga.  
Yuz yil yashab, tushsang ajal qo'lga,  
Chapingdan o'ngingga boqqancha bo'lmas.

Ko'ngli qaro bilan bo'lmanglar ulfat,  
Yuqar undan turli-tuman kasofat.  
Ko'mirga har necha aylasang izzat,  
Manglayga qarosi yuqqancha bo'lmas.

Mahtumquli, hargiz topmadim omon,  
Yomon tilning zahri tig'lardan yomon.  
Yomon til yonida ko'p zaharli ilon,  
Chaqa-da, bir chivin chaqqancha bo'lmas.

# Gullolamisan

M.M. ♩ = 66




Sen-gul-mi-san



Gul-no - ra - mi - san yo qir-da-gi gul-to - la - mi - san



Sho'x-lik-laring o'x-shar o - hu - ga Qay-g'u-lar-dan be-go - na - mi -



san



Gul - bo-g'im-dan u-zb das - ga gul Gul - zo-rim-ni



maq-tay-san but - kul Gul shay-do - si Gul-no - ra may - li Gul to'sh-ma-sin



qu-ling - dan but - kul.



To'q qi-zi-li

58

sev-gi be-xa-zon Oq chin-ni-si vi-sol-dan-ni shon.

65

Sa-ri-g'i-ga qil-ma e'-ti-bor Yo'q-sa me-ni O'r-tay-di hij-ron

72

Sen gul-mi-san gul-to-la-mi-san Yo qir-da-gi gul-to-la-mi-

79

san O-shi-g'ing-ni dog-da qol-dir-gan Yo gul-da-yin

86

qiz-bo-la-mi-san Sen gul-mi-san gul-to-la-mi-san

92

Yo gul-da-yin qiz-bo-la-mi-san

*Narimon Orifjonov she'ri*

Sen gulmisan, gullolamisan,  
Yo qirdagi qizbolamisan.  
Sho'xliklaring o'xshar ohuga,  
Qayg'ulardan begonamisan?

Gul bog'imdan uzib dasta gul,  
Gulzorimni maqtaysan nuqul.  
Gul shaydosi, Gulnora, mayli,  
Gul tushmasin qo'lingdan butkul.

To'q qizili sevgi bexazon,  
Oq chinnisi visoldan nishon.  
Sarig'iga qilma e'tibor,  
Yo'qsa mendek o'rtaydi hijron.

Sen gulmisan, gullolamisan,  
Yo qirdagi Gulnoramisan.  
Oshig'ini dog'da qoldirgan,  
Yo guldayin qiz bolamisan?

# Junun vodiysig'a

*Ohista*

8 Ju-nun vo-diy si-ga mo-yil

16 THar - men-bir yo'-li buz-noq bu-zil - g'on ro'z -



22 g'o rim-ni Fa-lak be-do -

30 di - din gar-chand men xo-lu g'u-bor o'l-dun

37 ti-lab kim top ma-g'ay-lar-to' ti - yo liq - qa


43 g'u-bo - rim-ni Tu-gan-di ash

51 ki-gul gul-em - di qol-mish za' - - fa-ro - niy-yuz Fa-lak zul-mi





126




us ru cy so-qiy Qa - dah-g'a zah -

134



- - ri qo - til quy dag'i daf' et hu-mo-rim-ni

141




Jdon tar-ki ni qil-may chun

149



ki tin moq mum - kin er-mas-dur Na-vo iy qil me-ni o - zod

156



o'r - tab yo' - - - qu bo-rim - ni.

Junun vodiysig'a moyil ko'rarmen joni zorimni,  
Tilarmen bir yo'li buzmoq buzilg'on ro'zig'orimni.

Falak bedodidin garchi men, hoku g'ubor o'ldim,  
Tilabkim, topmag'aylar to'tiyoliqqa g'uborimni.

Demang qay sori azm etkung, menga yo'q ixtiyor oxir,  
Qazo ilkiga bermushmen inonu ixtiyorimni.

Tugandi ashku gulgun, endi qolmish za'faroniy yuz,  
Falak zulmi badal qildi xazon birla bahorimni.

Diyorim ahli birla yordin boshimg'a yuz mehnat,  
Ne tong, boshim olib ketsam qo'yib yoru diyorimni.


Yomon holimga bag'ri og'rig'ay, har kimsakim ko'rgay,  
Bag'ir pargolasidin qong'a bulg'ong'on uzorimni.

Hayotim bodasidan sargaronmen usruk, ey soqiy,  
Qadahg'a zahri qotil quy, dag'i daf et xumorimni.


Jahon tarkini qilmay chunki tinmoq mumkm ermasdur,  
Navoiy, qil meni ozod o'rtaq yo'qu borimni.

# Sevgi


M.M. ♩ = 70



Sev - gi shun - day nav - ba -



hor - ki ul ti - kan - dan gul qi - lur Tosh - ga jo - nu dil ba -




g'ish - lab zog' - ni ham bul - bul qi - lur Sev - gi shun - day baxt - e -



rur - ki bar - cha bo'l - g'ay mub - ta - lo Mub - ta - lo - ni ne - ki




qil - sa tel - ba - dur ko'n - gil qi - lur.




Sev - gi shun - day tang - ri dur - ki un - go teng -

62  dir shoh ga - do Sev - gi shun -

70  day tang - ri dur - ki un - ga teng dur shoh ga - do. Qulni - ay - lab

77  shohu sul - ton, shoh - ni bo' l - sa qul - qil - lur

85  Sev - gi shun - day bir o - lov - ki jon - ga yo'q un - dan o - mon.

93  Gul - xan - ni - da o' r - tab o' r - tab bir kun o - xir kul qi - lur

101 

109  Sev - gi - ning bir huk - mi mut - loq

117  is - ta - sa shay - do - la - ri,

125  Chash - mi - gir - yo - ni - da um - non ah - li - dan do - vul - qil -

*Erkin Vohidov she'ri*

Sevgi shunday navbahorki, ul tikondin gul qilur,  
Toshga jonu dil bag'ishlab, zog'ni ham bulbul qilur.

Sevgi shunday baxt erurki, barcha bo'lgay muftalo,  
Muftaloni neki qilsa telba bu ko'ngil qilur.

Sevgi shunday Tangridirki, unga tengdir shoh-gado,  
Qulni aylab shohu sulton, shohni bo'lsa qul qilur.

Sevgi shunday bir olovki, jonga undan yo'q omon,  
Gulxanida o'rtao'rtao, bir kun oxir kul qilur.

Sevgining bir hukmi mutlaq, istama shaydolari,  
Chashmi giryonida ummon ahlidan dovul qilur.

Sevgiga she'r bitdi Erkin, besabab ermas emish,  
Aylagach ko'ngilni ishg'ol, she'r ila mashhur qilur.

# Emasmu

M.M. ♩ = 70

Ey-sec-gi sanam qil-men-ga o - zo - ring e - mas mu,

8 Siy-nang da - gi yo nar o't xu-mo-ring e - mas -

15 mu O.. O.. xu-mo-ring e - mas mu.

24 O.. O.. xu - mo-ring e - mas mu.

32 Arz-ay -

41 - la-gan ol-ding-da gi dil-do-ring e - mas - mu.

48 So'z ber - guv chi shum-lar sa ning ag'-yo-ring e mas - mu

55 O.. O.. ag'-yo-ring e - mas - mu O..

64

O.. ag' yo-ring e-mas mu.

72

79

86

Bir va'-da qi lib av-val-da ay-la-ding va-fo - ni

93

100

Tark ay - la-bon va-fo ni

108

ay-la-ding ja-fo ni Ayb er-mas ki-shi gar-do-ni

115

ga ol-sa xa to - ni. G'ay-ri-lar bi-lan ay-la-bon ul

123

kay-fu sa-fo ni Ishq ah - lining gul yu-zi sa-ning

131




diy-do-ring e-mas - mu Diy-do - ring-ni man bir ko'-ray zo - ring

139



e-mas mu O.. O.. zo - ring e-mas

147



mu O.. O.. zo-ring e-mas mu


156



163



170



Bir bo - ra ko'-rib hus-ning ni de - vo na bo' - lib -

177




man.

185



Aq - lu hu-shim yo'q o'zim - da

192



hay ro - na bo' lib man. Ayb ay - la - mang Sa - do iy - ni




199



207



214



222



230



238



## *Sadoiy she'ri*

Ey sevgi sanam, bu menga ozoring emasmu,  
Siynangdagi yonar o't xummoring emasmu.  
Arz aylagan oldingdagi dildoring emasmu,  
So'z berguvchi shumlar sening ag'yoring emasmu.

Bir va'da qilib avvalda aylading vafoni,  
Tark aylabon vafoni aylading jafoni.  
Ayb ermas kishi gardaniga olsa xatoni,  
G'ayrilar bilan aylabon ul kayfu safoni.

Ishq ahlining gul yuzi saning diydoring emasmu,  
Diydoringni man bir ko'rarga zoring emasmu.  
Bir bora ko'rib husningni devona bo'libman,  
Aqlu hushim yo'q o'zimda, hayrona bo'libman.

Ayb aylamang Sadoiyini, afsona bo'libman,  
Sevgi sanam yo'llarida qurbona bo'libman.  
Ishq ahlining diydori saning diydoring emasmu,  
Diydoringni man bir ko'rarga zoring emasmu.

# Aldama

amov N.T. oigan



11




24

ko'ying - da'o'r - ta-ni - b tur-gay ndo-o - lar hij-ron




36

a-zo - bi dan - n chi-qar sa-do - lar bo-shim - ga sol - sang da ming bir



48

ju-fo - la - r al-da-ma ey y-o - r al-da - ma



60

os-mon - lar yul-duz - si - z qol-sa



72

chi-dar - man kun-la-ri - m kun-duz si - z qol-sa chi-dar ma - n bu o - la



84

